2026-yil
9(2)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(2)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(2)-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Boboyeva Sayyora Boboradjabovna, psixologiya fanlari doktori, professor, Tojikiston
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

Turaxonov Abdukarim Eshkuziyevich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI

Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI

Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(2)-son

UDK 159.9:316.6

Tohirova Mohigul Umir qizi,
Samarqand davlat universiteti
"Amaliy psixologiya" kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

SOG'LOM SHAXSLARNI KO'RISHDA NUQSONI BOR SHAXSLARGA TOLERANTLIGINING SHAXSIYLIK OMILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada sog'lom shaxslar hamda ko'rishda nuqsoni bor shaxslarning kommunikativ tolerantlik xususiyatlari va ularning shaxsiylik omillari empirik jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotda V.V. Boykoning kommunikativ tolerantlikni aniqlash so'rovnomasi qo'llanilib, jami 359 nafar respondent (89 nafar sog'lom va 270 nafar ko'rish qobiliyati cheklangan shaxs) qamrab olindi. Statistik tahlillar (Styudentning t-mezoni) shuni ko'rsatdiki, ko'rishda nuqsoni bor shaxslarda suhbatdoshni o'zidat uzoqlashtirmaslik, xatolarni kechira olish va noqulayliklarga chidamlilik ko'rsatkichlari bo'yicha kommunikativ tolerantlik darajasi sog'lom shaxslarga nisbatan yuqoriroq namoyon bo'ladi. Shuningdek, ayollarda erkaklarga nisbatan vaqtinchalik diskomfort va individuallikni qabul qilish borasida tolerantlik yuqori ekani aniqlandi.

Kalit so'zlar: kommunikativ tolerantlik, ko'rishda nuqsoni bor shaxslar, ijtimoiy integratsiya, tiflopsixologiya, shaxsiylik omillari, ijtimoiy moslashuv, bag'rikenglik.

ФАКТОРЫ ЛИЧНОСТИ ТОЛЕРАНТНОСТИ ЗРЯЧИХ ЛЮДЕЙ ПО ОТНОШЕНИЮ К ЛИЦАМ С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ

Аннотация. В данной статье эмпирически исследованы особенности коммуникативной толерантности и личностные факторы зрячих людей и лиц с нарушениями зрения. В исследовании приняла участие выборка из 359 респондентов (89 зрячих и 270 лиц с нарушениями зрения) с использованием методики диагностики коммуникативной толерантности В.В. Бойко. Статистический анализ (t-критерий Стьюдента) показал, что у лиц с нарушениями зрения уровень коммуникативной толерантности по шкалам прощения ошибок, принятия индивидуальности и устойчивости к дискомфорту выше, чем у зрячих. Также выявлены гендерные различия: у женщин показатели коммуникативной толерантности выше, чем у мужчин.

Ключевые слова: коммуникативная толерантность, лица с нарушениями зрения, социальная интеграция, тифлопсихология, личностные факторы, социальная адаптация.

PERSONALITY FACTORS OF SIGHTED INDIVIDUALS' TOLERANCE TOWARD PEOPLE WITH VISUAL IMPAIRMENTS

Abstract: This article empirically investigates the characteristics of communicative tolerance and personal factors of sighted individuals and visually impaired individuals. The study involved 359 respondents (89 sighted and 270 visually impaired individuals) using V.V. Boyko's communicative tolerance survey. Statistical analysis (Student's t-test) revealed that visually impaired individuals exhibit higher levels of communicative tolerance regarding forgiveness of errors, acceptance of individuality, and resistance to discomfort compared to sighted individuals. Additionally, significant gender differences were identified, showing higher tolerance levels in females than males.

Keywords: communicative tolerance, visually impaired individuals, social integration, typhlopsychology, personality factors, social adaptation.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda insoniy munosabatlar o'zaro muvofiqligini ta'minlash va inson shaxsiyatini o'z qadr-qimmatini tan olishni, individual jismoniy va aqliy xususiyatlarni hisobga olgan holda uni qobiliyatlarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy integratsiya qilish jamiyatni ustuvor vazifasidir. Shu bilan birga, "integratsiyalashgan munosabatlar jarayonida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va kross-madaniy ta'sirlar fonida insonni moslashuvchan qobiliyatlariga bo'lgan talablar darajasini orttiradi".[4] Bu esa shaxsni ijtimoiy-psixologik omillari, integratsiya va ijtimoiy moslashuvini harakatga keltiruvchi motivlari tadqiqiga, uni moslashuv imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga bo'lgan qiziqishni oshishiga olib keladi. Tez o'zgaruvchan muhitga moslashishda, ayniqsa, nogironlar sezilarli qiyinchiliklarga uchraydi. Aholini ushbu toifasi subyektiv va obyektiv omillarga bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotga qo'shilishda sezilarli qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. Imkoniyati cheklanganlar, shu jumladan, ko'rish qobiliyati cheklangan odamlar, ijtimoiy-psixologik sabablarga ko'ra "ijtimoiy ko'pchilik"dan ajratilgan ma'lum bir ijtimoiy qatlamni anglatadi.

Tabaqalanish tizimida aholini ushbu toifasi, odatda, uy, maktab va ijtimoiy muhitdagi muammolar tufayli quyi, marginal qatlam; o'qishni bitirgandan keyin ishsizlik; umumiy ijtimoiy darajalarni egallaydi. "Ko'rish qobiliyati cheklangan shaxslar odamlarni maxsus guruhi sifatida, birinchi navbatda, zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitda vizual tarkibiy qismini ustunligi tufayli ijtimoiy moslashuv jarayonini o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi".[8] Ko'rish qobiliyati cheklanganlarni jamiyatga qo'shilishidagi muhim to'siqlar nafaqat real iqtisodiy,

ijtimoiy-psixologik yordamni etarli darajada rivojlanmaganligi, balki jamiyatni imkoniyatga cheklanganlarga nisbatan bag‘rikenglik darajasini etarli emasligi, ularga nisbatan ijobiy xarakterdagi ijtimoiy munosabatlarni yo‘qligi, keng tarqalgan tushunchalar va stereotiplar ko‘rishda jiddiy nuqsoni bo‘lgan kishilarni idrok etish bilan bog‘liqligini etish lozim. Shu munosabat bilan, ko‘zi ojiz odamlarni jamiyatga qo‘shilishi, birinchi navbatda, insonni yuqori hayot sifatiga erishishiga to‘sqinlik qiladigan ijtimoiy-psixologik to‘siqlarni yo‘q qilishni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, ko‘rishda jiddiy nuqsoni bo‘lgan shaxslarning o‘ziga xos ehtiyojlarini amalga oshishiga muvofiq bo‘lgan shart-sharoitlarning etarli emasligi, ijtimoiy-madaniy harakatchanlik va hayot imkoniyatlarini cheklash ularning shaxsiy rivojlanishi, adaptiv, integratsion salohiyati va ijtimoiy faolligini oshirish masalalar ahamiyatini oshiradi, bu hayotni me’yorlashtirish, ijtimoiy moslashish va ularni jamiyatga haqiqiy “qo‘shilishi”ga yordam berishi zarur.

Bugungi kunga qadar tiflopsixologiyada reabilitatsiya va tuzatish muassasalari faoliyatida turli yosh toifasidagi ko‘rishda jiddiy nuqsoni bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashuvi hamda integratsiyasi muammolari bo‘yicha keng nazariy va amaliy materiallar to‘plangan, ushbu jarayonlarni optimallashtirishga qaratilgan hajm va tarkib jihatidan muhim ishlar olib borilmoqda.[2,3] Biroq, o‘zbek tiflopsixologiyasida ko‘rish qobiliyati past bo‘lganlarni ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga qo‘shilishi muammosini deyarli batafsil nazariy va uslubiy tahlili mavjud emas,[9] ko‘rish qobiliyati pastlarni jamiyatga moslashishi va integratsiyasini psixologik hamda ijtimoiy-psixologik jihatlarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ishlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Bu, o‘z navbatida, ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishni, shuningdek, ko‘rishda jiddiy nuqsoni bo‘lgan odamlarni ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlashni ilmiy-amaliy muammolarini hal qilishni murakkablashtiradi.

Bundan tashqari, tiflopsixologiyada keng qo‘llaniladigan “inkulturatsiya”, “internatsionalizatsiya”, “adaptatsiya”, “ijtimoiy moslashuv”, va “ijtimoiy integratsiya” tushunchalari o‘rtasidagi munosabatlar aniqlanmagan, ko‘rish qobiliyati cheklangan odamlarni ijtimoiy moslashuvi va integratsiyasi darajasini aniqlash uchun kompleks mezonlar mavjud emasligi ham biz tanlagan mavzuning ahamiyatini oshiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy moslashuv odamlarni hayotga, boshqa odamlar va o‘zi bilan munosabatlarga moslashishi sifatida ajralmas tarkibiy qism, ijtimoiy integratsiyani ichki sharti, ya’ni jamiyatni boshqa a’zolari bilan teng huquqli ijtimoiy aloqalar va munosabatlarga qo‘shilishdir. Jamiyatga integratsiyalashuv shaxs ijtimoiy moslashuvini zarur darajasini nazarda tutadi.

Metodologiya. Tadqiqot tanlanmasi va tashkil etilishi. Tadqiqotda jami 359 nafar respondent ishtirok etdi. Respondentlar ikki asosiy guruhga ajratildi:

1. Sog‘lom respondentlar: n_1 = 89 nafar (51 nafar erkak, 38 nafar ayol).

2. Ko‘rishda nuqsoni bor respondentlar: n_2 = 270 nafar ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi shaxslar.

Tadqiqot metodikalari va diagnostika instrumentariysi. Sog‘lom va ko‘rishda nuqsoni bor shaxslarda kommunikativ tolerantlik ko‘rsatkichlari va uning namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash maqsadida V.V. Boykoning “Kommunikativ tolerantlikni tashxis qilish So‘rovnomasi” qo‘llanildi [1]. Metodika 9 ta xususiy shkala hamda 1 ta integral (umumiy) kommunikativ tolerantlik darajasini baholaydi:

- *Yuqori daraja:* 0–5 ball (xususiy shkalalar bo‘yicha), 0–45 ball (umumiy daraja);
- *O‘rta daraja:* 5–10 ball (xususiy shkalalar bo‘yicha), 45–90 ball (umumiy daraja);
- *Past daraja (intolerantlik):* 10–15 ball (xususiy shkalalar bo‘yicha), 90–135 ball (umumiy daraja).

Matematik-statistik tahlil usullari. Olingan empirik ma'lumotlarning statistik ishonchliligini baholash va guruhlararo (sog‘lom va ko‘zi ojizlar; erkaklar va ayollar) farqlarni aniqlash uchun Styudentning t-mezoni (t-criterion) hamda o‘rtacha arifmetik qiymat (M) va o‘rtacha kvadratik chetlashish (stigma) ko‘rsatkichlaridan foydalanildi [6, 10].

Natijalar. Sog‘lom va ko‘rishda nuqsoni bor shaxslarni kommunikativ tolerantlik xususiyatlarini empirik tadqiq etish natijalari.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan model nazariy asosga ega bo‘lsa-da, uni tarkibiy qismlari o‘zaro muvofiq ekanligi amaliy nuqtai nazardan baholandi. Shuningdek, odatda ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi shaxslarga nisbatan tolerantlikni shaxsiy imkoniyatlari, shaxsiy omillarini empirik tadqiq etishda uni tolerant ong, tolerant shaxs, tolerant xatti-harakat va o‘zaro ta’sir (kommunikativ bag‘rikenglik) kabi uchta asosiy tarkibiy qismi bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligi dalillandi. Nazariy, amaliy va empirik kross-dissiplinar tadqiqot natijalarini tizimlashtirish bizga barcha toifadagi asosiy empirik determinantlarni aniqlashga imkon berdi. Bu kommunikativ tolerantlikning o‘ziga xos xususiyatlari, sog‘lom kishilarni ko‘zi ojizlar bilan muloqot qilish tajribasi (tolerant o‘zaro ta’sir), sog‘lom kishilar ongida ko‘zi ojiz kishi obrazi (tolerant ong); shaxsni hissiy, kognitiv va kommunikativ xususiyatlari, qadriyatli-mazmuniy ustanovkalar, shaxsni o‘zini o‘zi anglash xususiyatlari (tolerant shaxs) o‘zaro uyg‘un bir mexanizm tarzida faoliyatga kirishishi shaxs komillik darajasining belgisi ekanligini tasdiqlaydi.

Shu munosabat bilan, empirik tadqiqotda biz sog‘lom kishilarning tolerantlik shaxsiy salohiyatini kommunikativ tolerantlik xususiyatlari va ularni ong, shaxsiyat xususiyatlari, ko‘zi ojizlar bilan o‘zaro munosabatlar tajribasi bilan aloqasi kabi asosiy tarkibiy qismlarini aniqladik.

Kommunikativ tolerantlik shaxslarni ikki tomonlama o‘zaro ta’sirini namoyon bo‘lishi va dialog sifatini, turli toifalar, guruhlar va muayyan shaxslarni bir-biriga bo‘lgan munosabatini tavsiflaganligi sababli sog‘lom kishilar va ko‘zida nuqsoni bo‘lgan kishilarni tolerantlik munosabatlari o‘rtasidagi farqni aniqlash muhim.


Shu o‘rinda empirik tadqiqotni asosiy natijalariga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

Sog‘lom kishilar va ko‘zi ojizlarni turli vaziyatlarda o‘zaro ta’siri (tolerant muloqot)ni qabul qilish yoki qabul qilmaslik ustanovkalarini psixologik mexanizmlarini aniqlash maqsadida V.V. Boykoni so‘rovnomasi[1] yordamida turli bioijtimoiy guruhlarda kommunikativ tolerantlik xususiyatlari ifodalanganligi tahlili o‘tkazildi.

Sog‘lom kishilarda kommunikativ tolerantlikni ifodalanganligi va xususiyatlari variativligi ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqamiz. Natijalar 1-rasm va 1-jadvalda keltirilgan.

V.V. Boykoni metodikasi tavsifiga muvofiq ravishda tolerantlik xususiyatlarining ifodalanganlik darajalari: yuqori (0-5 ball), o‘rta (5-10 ball), past (10-15 ball), shuningdek, kommmunikativ tolerantlikning umumiy ko‘rsatkich darajalari aniqlandi: 0-45 ball – yuqori daraja, 45-90 ball – o‘rta, 90-135 past darajalarda namoyon bo‘lishini o‘ziga xos tavsiflari mavjud.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, sog‘lom kishilarning kommunikativ tolerantligi umumiy ko‘rsatkichi o‘rtacha darajada ifodalangan. Bu shuni anglatadiki, umuman olganda, ular o‘rtacha tolerantlik, atrofdagi odamlarga nisbatan sabrlilikni namoyon etadi va kommunikativ vaziyatlarda ular dialog va sherikni individualligini tushunish yoki rad etishga moyillik kabi turli xil munosabatlarni namoyon qilishlari mumkin. Sog‘lom kishilar tarkibidagi turli darajada kommunikativ tolerantlikka ega bo‘lganlarni foiz munosabatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, respondentlarni aksariyati (53%) boshqalar bilan o‘zaro ta’sirda tolerantlikni o‘rta darajada ifodalanganligi bilan xarakterlanadi (1-rasm).



1-rasm. Turli darajadagi kommunikativ tolerantlikka ega bo‘lgan sog‘lom respondentlar foizi

Barcha subyektlarni katta qismi (44%) muloqotda yuqori tolerantlikka ega, boshqa shaxsni o‘ziga xosligini qabul qila oladi, boshqa turmush tarzi va holatlariga qiziqish ko‘rsatadi, o‘z xususiyatlaridan farqli bo‘lgan odamlar bilan hamkorlikni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlashga tayyor. Respondentlarni atigi 3 foizi ijtimoiy ko‘pchilikdan farq qiladigan boshqa odamlarga nisbatan murosasizlikni namoyish etadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, jamiyatda umum e’tirof etilgan me’yordan aniq

farqlarga ega bo‘lgan odamlar bilan o‘zaro munosabatlarda, agar ularni xatti-harakatlari umuminsoniy va gumanistik qadriyatlarga zid bo‘lmasa, ularga nisbatan salbiy ustanovkalar uchramaydi.[6]

1-jadval

Sog‘lom kishilarda kommunikativ tolerantlikni ifodalanganligi va variativlik xususiyatlari (n=89)

№	Kommunikativ tolerantlik xususiyatlari	*X*	Ox
1.	Individuallikni qabul qila olmaslik	4,23	2,82
2.	O‘z fikrini “etalon” sifatida qo‘llash	4,08	2,61
3.	Suhbatdoshni idrok etishdagi konservatizm, kategoriya	5,38	2,97
4.	Yoqimsiz taassurotlarni yashirish yoki yumshata olmaslik	4,62	1,85
5.	Sherigini muloqot bo‘yicha “qayta tarbiyalashga” moyillik	4,43	1,53
6.	Sherigini “o‘ziga moslashtirish”ga intilish	5,74	2,88
7.	Xatolarni kechira olmaslik	7,03	2,76
8.	Obyektiv noqulayliklarga toqat qila ololmaslik	4,43	1,61
9.	Muloqotda moslashuvni past darajasi	5,62	2,86
10.	Kommunikativ tolerantlikni umumiy darajasi	7,03	2,89

So‘rovnomani individual shkalalarini tahlil qilish tolerantlikni kommunikativ to‘siqlari yana-da aniqroq bo‘lgan o‘zaro ta’sir tomonlarini aniqlashga imkon beradi. Bu muloqot sherigining xatolarini, boshqalarni noqulayliklariga va konservatizmga nisbatan murosasizlik, suhbatdoshni idrok etishda qat’iylikni kechira olmaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, bu xususiyatlar ko‘zi ojizlar bilan ijobiy aloqalarni o‘rnatishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Yuqorida ifoda etilgan stereotipik g‘oyalarga muvofiq, imkoniyati cheklanganlar ko‘pincha kommunikativ xatolarga yo‘l qo‘yadilar, jismoniy va ruhiy noqulayliklarni boshdan kechiradilar.

Respondentlarning umumiy tanlovi (89 kishi) jinsi, yoshi va sog‘lom hamda ko‘zi ojizlar bo‘yicha guruhlarga bo‘lingan. Shunga ko‘ra, Styudentning t-mezoni yordamida kommunikativ tolerantlik xususiyatlarining o‘rtacha qiymatlaridagi sezilarli farqlar aniqlandi.

Shunday qilib, odamlar bilan o‘zaro munosabatlarda tolerantlik erkak va ayollarda turlicha namoyon bo‘lishi aniqlandi (2-jadval). Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, boshqa odamlarni o‘ziga xosligini qabul qilish, ularni o‘z mavqei, turmush tarziga bo‘lgan huquqlarini hurmat qilish va muloqotda sheriklik munosabatlari ayollarga ko‘proq xosdir. Ular suhbatdoshning individualligini qabul qilish va hurmat qilishga moyil, agar muloqot sherigi biror-bir psixofizik kasalliklar tufayli bezovtalikniboshdan kechirayotgan bo‘lsa, muloqotda moslashuvchanlikni,

suhbatdoshni holati, ichki dunyosi, munosabatlarini tushunish qobiliyatini namoyon etadi, muloqot qilishdan qochmaydilar.

2-jadval

Jinslararo kommunikativ tolerantlikni o‘rtacha ko‘rsatkichlaridagi sezilarli farqlar (p=51; p_2=38)

Ko‘rsatkichlar	M±c> Erkaklar	M±<T Ayollar	t	P (%)
Individuallikni qabul qila olmaslik	6,50±4,26	4,48 ±1,97	2,49	1
Noqulaylikka chidamsizlik	9,82±4,36	5,81±2,56	3,10	1
Muloqotda past moslashuv	6,28±3,29	3,03±2,41	4,23	0,1
Integral ko‘rsatkich	56,39±19,77	46,48±15,65	2,03	5

Bu kommunikativ tolerantlikni yuqori darajasini belgilaydi. Ko‘rinishidan, bu jinsiy xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, u ko‘proq emotsional sezgirlikni, aloqa strategiyalarini o‘zgaruvchanligini, ayollarni turli xil odamlar, shu jumladan, nogironlarni xulq-atvoriga nisbatan bag‘rikengligi bilan ifodalanadi.[10]

Yosh va yetuk odamlarda kommunikativ tolerantlik xususiyatlarida farqlar bo‘lmagan. Bu shuni ko‘rsatadiki, “mezon” haqidagi odatiy yoki umumiy qabul qilingan g‘oyalardan farq qiladigan boshqa odamlarni o‘ziga xosligini hurmat qilish va qabul qilishga bo‘lgan munosabat shaxsni yosh xususiyatlari va turli avlodlarni dunyoqarashiga bog‘liq emas.[7]

Muhokama. Ko‘zi ojiz odamlarda tolerantlik xususiyatlarining o‘rtacha qiymatlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, ular rivojlanishning o‘rtacha va yuqori darajasida. Shu bilan birga, umumiy tolerantlik indeksi, garchi u o‘rtacha darajada bo‘lsa-da, ko‘radigan odamlarnikiga qaraganda bir oz yuqori. Ko‘zi ojiz odamlarda tolerantlikni eng kam uchraydigan to‘siqlari – bu qayta tarbiyalash va muloqot sherigini “o‘zlari uchun qulay” qilish tendensiyasi, suhbatdoshni noqulayligiga toqat qilmaslik, muloqotdagi nomuvofiqlik, ya’ni, boshqa odamlar bilan o‘zaro aloqada ko‘r va ko‘zi ojiz odamlar suhbatdoshni o‘zi kabi qabul qilishga moyil bo‘lib, kommunikativ moslashuvchanlikni namoyon etadilar.


3-jadval

Ko‘rish qobiliyati zaiflarni kommunikativ tolerantlik xususiyatlari ifodalanganligi va o‘zgaruvchanligi (n-270)

№	Kommunikativ tolerantlik xususiyatlari	*X*	o_x
1	Individuallikni qabul qila olmaslik	4,49	2,00
2	O‘z fikrini qolip sifatida qo‘llash	4,28	2,39
3	Konservatizm, suhbatdoshni idrok etishdagi kategoriyaviylik	5,66	2,45

4	Noxush taassurotlarni yashirish yoki yumshata olmaslik	4,90	1,46
5	Muloqot sherigini "qayta tarbiyalash"ga moyillik	4,79	1,31
6	Sherigini o'zidan uzoqlashtirishga intilish	5,84	2,81
7	Xatolarni kechira olmaslik	7,13	2,43
8	Atrofdagilar yuzaga keltirayotgan noqulayliklarga chidamsizlik	4,79	1,31
9	Muloqotga moslashishni past darajasi	5,84	2,81
10	Kommunikativ tolerantlikni umumiy darajasi	7,13	2,43

Turli darajadagi umumiy kommunikativ tolerantlikka ega bo'lgan ko'rish qobiliyati zaif odamlarni foizlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyatida tolerantlik muloqotda o'rta ifodalangan munosabatda bo'lishadi (2-rasm). Ko'rish qobiliyati zaif odamlarni sog'lomlarga qaraganda bir oz kamroq soni (36%) yuqori kommunikativ tolerantlikka ega.



2-rasm. Ko'zi ojizlarni turli kommunikativ tolerantlik darajasining foiz munosabati

Sog'lom va ko'zi ojiz odamlarning kommunikativ tolerantligi namoyon bo'lishini o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun o'rtacha ko'rsatkichlardagi statistik jihatdan ahamiyatli farqlarni tahlil qilishga murojaat qilaylik.

4-jadval

Sog'lom va ko'zi ojiz odamlarda kommunikativ tolerantlikning o'rtacha ko'rsatkichlaridagi sezilarli farqlar (n_1 = 89; n_2=270)

Intolerantlik ko'rsatkichlari	M±<5 Sog'lom	M±o Ko'zi ojiz	T	P (%)

Muloqot sherigini "o'zidan uzoqlashtirishga" intilish	6,54±3,51	3,95±2,35	2,74	5
Xatolarni kechira olmaslik	7,93±3,23	4,12 ± 3,47	3,61	0,1
Diskomfort vaziyatlarda chidamsizlik	7,61±3,46	4,70±3,21	2,67	1

4-jadvalda keltirilgan natijalar ko'rsatganidek, tolerantlikni uchta ko'rsatkichida statistik jihatdan sezilarli farqlarni kuzatish mumkin. Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, ko'rish qobiliyati past odamlarni tolerantligi odatdagi odamlarga qaraganda yuqori, ammo bu ko'rsatkich statistik ahamiyatga ega darajaga etib bormaydi. Shunday qilib, ko'rish qobiliyati past bo'lgan odamlarda past ko'rsatkichlar (mos ravishda tolerantlikni yuqori darajasi) sherikni qayta tiklash va qayta tarbiyalash tendensiyasi; sheriklarni o'zlariga moslashtirish tendensiyasi; o'z xatolari uchun boshqalarni kechira olish qobiliyati, noqulayliklar kabi quyidagi shkalalar bo'yicha kuzatiladi.

Xulosa. Empirik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'rish qobiliyati cheklangan shaxslarda kommunikativ tolerantlikning shakllanishi va namoyon bo'lishi ularning jamiyatga ijtimoiy moslashuvi hamda hayotiy tajribalari bilan bevosita bog'liqdir. Ko'rishda nuqsoni bor respondentlar "sheriklarini o'zidan uzoqlashtirish" shkalasi bo'yicha olingan yuqori ball muvofiq ravishda ushbu tendensiyada kam ifodalangan. Buni umuman insonga o'z atrofidagilarini o'ziga moslashtirish xosligi bilan izohlash mumkin. Zamonaviy shaxsda boshqa kishilarni boshqarishga moyillik ko'proq kuzatiladi. Ko'zi ojizlar esa barcha narsalar sog'lomlarga mo'ljallangan jamiyatda o'zlari boshqa kishilarga moslashishiga to'g'ri keladi. Shu sababli bu shkala bo'yicha ko'zi ojizlar va ko'rishda nuqsoni bor respondentlarda nisbatan yuqori kommunikativ tolerantlik ifodalangan bo'lishi mumkin.

Ko'rishda nuqsoni bor shaxslar doim o'ziga qaratilgan noto'g'ri ifodalar yoki ifodalar ular tomonidan noadekvat talqin etilishi, atrofidagilarni ko'zi ojizlarni tushunmasliklariga to'qnash keladi va bu noqulay vaziyatlar, ba'zan ko'zda tutilmagan salbiy hodisalarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu holat vaqt o'tgani sari imkoniyati cheklanganlarni o'ziga ham me'yordagi holat sifatida qabul qilina boshlaydi, bunday holatlarga nisbatan sabrli munosabat paydo bo'ladi. Biznicha, ko'zi ojizlarni sog'lom kishilarga nisbatan boshqalarni kechira olish, noqulayliklarga nisbatan bardoshliligi aynan mana shunga bog'liq.

Shu tariqa xulosa qilish mumkinki, ko'zi ojizlarni kolmmunkiativ tolerantlikni "o'zidan sheriklarni uzoqlashtirishga moyillik" va "boshqalarni kechira olish" shkalalari bo'yicha nisbatan past ko'rsatkichi, bir tomondan, imkoniyati cheklanganlarni sog'lom kishilar jamiyati sharoitlariga moslashganlik natijasi sanaladi. Boshqa tomondan, olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ko'zi ojizlar jamiyat va sog'lom kishilar bilan teng huquqli o'zaro ta'sirga tayyorligidan dalolat beradi. Ularga sabr-toqat, muloqotdagi bebaholik, psixopoetik tafakkur, tushunishga

intilish va individuallikni qabul qilish xos. Muloqotda normal ko‘rish qobiliyatiga ega odamlar ko‘proq ijtimoiy stereotiplarga, tajriba jarayonida ishlab chiqilgan “to‘g‘ri” xatti-harakatlar va boshqa odamlarni “me’yoriy” xususiyatlari haqidagi g‘oyalarga asoslanadi. Muloqot sheriklarini baholashlaridagi bunday qat’iylik, muloqot qilish uchun “qulay” odamlar bilan muloqot qilish istagi imkoniyati cheklanganlarni jamiyatga integratsiyalashuvining ijtimoiy-psixologik to‘sig‘ini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бойко В. В. Энергия эмоций в обшении: взгляд на себя и на других. — М.: Филин, 1996. — 472 с.
2. Литвак А. Г. Психология слепих и слабовидяших: учебнойе пособийе. — СПб.: Изд-во РГПУ им. А. И. Гертсена, 1998. — 271 с
3. Солнтсева Л. И. Тифлопсихология детства. — М.: Полиграф сервис, 2000. — 250 с.
4. Bourdieu P. The Forms of Capital // Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education / Ed. by J. Richardson. — New York: Greenwood Press, 1986. — P. 241–258.
5. Coleman J. S. Social Capital in the Creation of Human Capital // American Journal of Sociology. — 1988. — Vol. 94. — P. 95–120.
6. Макаров В. Е., Попова Т. А. Исследованийе толерантности в коммуникативной сфере личности // Вестник психологической науки. — 2018. — № 3. — С. 45–52.
7. Kholnazarova M. Kh. Issues of social adaptation and integration of persons with physical disabilities in Uzbekistan // Central Asian Journal of Social Sciences and History. — 2021. — Vol. 2, No. 5. — P. 12–19.
8. Raximova Z. M. Tiflopsixologik tadqiqotlarda shaxs xususiyatlarini o‘rganish usullari // Psixologiya va ta’lim jurnali. — 2020. — № 2. — B. 34–40.
9. Askarova N. A. Kommunikativ munosabatlar va tolerantlik psixologiyasi. — Tashkent: Universitet, 2022. — 165 b.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(2)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694